



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. МАНЬКОВКАЯ Л. М. Памятники зодчества Хорезма.
2. Пугаченкова Л.К. Шахрисабз, Термез, Хива.
3. Материали бытовой технической инвентаризации по Хорезмской области.

FARG'ONA VODIYSI NAMANGAN VILOYATIDA JOYLASHGAN TARIXIY ZIYORAT MAJMUALARINING ME'MORIY TAHLILI (SULTON UVAYS QARONIY MAJMUASI)

Adilov Zafar Ravshanovich

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi, arx.f.f.d
(PhD)**

email: adilovzafar615@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola ziyorat turizmi doirasida tarixiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan majmualarning asosiy xususiyatlari va ularning o'z davriga tegishli arxitekturaviy jihatlarini tahlil qiladi. Maqola Farg'ona vodiysida joylashgan ziyoratgohlar misolida ularning hududiy-tarixiy, madaniy va me'moriy xususiyatlarini ochib beradi. Maqolada ziyorat turizmining rivojlanishida mazkur majmualarning roli, shuningdek, ulardagi me'moriy uslublar, kompozitsiyaviy yechimlar va hunarmandchilik an'analarga alohida e'tibor qaratiladi. Ziyorat ob'yektlarining zamonaviy turistik infratuzilma bilan uyg'unligi va ularni saqlash, tiklash masalalari ham muhokama qilingan. Mazkur tahlil Farg'ona vodiysidagi tarixiy merosni turizm orqali rivojlantirishda muhim amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Аннотация

В данной статье анализируются основные особенности комплексов, имеющих историко-духовное значение в рамках паломнического туризма, и их архитектурные аспекты, относящиеся к их времени. В статье на примере мест паломничества, расположенных в Ферганской долине, раскрываются их территориально-исторические, культурные и архитектурные особенности. В статье особое внимание уделяется роли этих комплексов в развитии паломнического туризма, а также их архитектурным стилям, композиционным решениям и ремесленным традициям. Также обсуждались вопросы

гармонизации паломнических объектов с современной туристической инфраструктурой и их сохранения и восстановления. Данный анализ дает важные практические выводы по развитию исторического наследия Ферганской долины посредством туризма.

Abstract

This article analyzes the main features of complexes of historical and spiritual significance within the framework of pilgrimage tourism and their architectural aspects of their time. The article reveals their territorial-historical, cultural, and architectural features using the example of pilgrimage sites located in the Fergana Valley. The article pays special attention to the role of these complexes in the development of pilgrimage tourism, as well as their architectural styles, compositional solutions, and craft traditions. The compatibility of pilgrimage sites with modern tourist infrastructure and issues of their preservation and restoration were also discussed. This analysis provides important practical conclusions for the development of the historical heritage of the Fergana Valley through tourism.

Kalit soʻzlar

ziyosat turizmi, tarixiy majmualar, landshaft arxitekturasi, Fargʻona vodiysi, milliy meʼmorchilik, madaniy meros.

Ключевые слова

паломнический туризм, исторические комплексы, ландшафтная архитектура, Ферганская долина, национальная архитектура, культурное наследие.

Keywords

pilgrimage tourism, historical complexes, landscape architecture, Fergana Valley, national architecture, cultural heritage.

Kirish

Oʻzbekiston ziyosat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur koʻplab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga eʼtiqod qiluvchilar uchun ham aziz boʻlgan tarixiy qadamjolar bor. Islom dunyosining eng qimmatbaho Qurʻoni karim namunalaridan biri – Xalifa Usmon Qurʻon kitobi saqlanuvchi Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi Mahammad Al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbalari va shu kabi koʻplab boshqa diniy markazlar mavjud. Bunday tarixiy va

muqaddas qadamjolariga ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyuradi.

Asosiy qism

O'zbekistondagi dunyoga mashhur va go'zal shaharlar ziyorat turizm infratuzilmasini barpo etish, sayyohlar uchun barcha kerakli shartsharoitlarni yaratish, ziyorat turizm brendini ishlab chiqish bo'yicha yetarli salohiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, O'zbekistonda 7300 dan ortiq madaniy yodgorliklarning mavjudligi va ularning ko'plari UNESCO tomonidan e'tirof etilishi [2] ham O'zbekistonning ziyorat turizmi sohasida ichki va xalqaro sayyohlarni madaniy yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va osori atiqalar hamda tarixiy obidalar majmualariga tashrifini ta'minlash borasida keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy soha rivojiga ham ta'sir qiladi[1.3].

Ziyorat turizmi va uning rivojlanish omili sifatidagi tarixiy majmualar Farg'ona vodiysidagi tarixiy ziyoratgohlar - Chorku, Uvays Karaniy, Ibrat maqbarasi, Quvasoydagi masjidlar kabi ob'yektlar - o'zining tarixiy, diniy va madaniy ahamiyati bilan alohida ahamiyatga ega. Ular orqali jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi. Bu ob'yektlarning zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan uyg'un ravishda rivojlantirilishi ziyorat turizmining barqaror o'sishiga turtki beradi.

Farg'ona vodiysida joylashgan ziyorat turizmi doirasidagi tarixiy majmualarga quyidagi amaliy misollarni keltirish mumkin. Chorkudagi ziyorat majmuasi, Ibrat maqbarasi atrofidagi loyihalar va Uvays Karaniy ziyoratgohi hududida amalga oshirilgan landshaft-me'moriy ishlar tahlil qilingan. Ushbu ob'yektlarda milliy uslubdagi me'moriy yechimlar va zamonaviy turistik infratuzilma uyg'un tarzda joriy qilingan.


Musulmon olamida Qaroniy dafn etilgan bir necha joy mavjud. Shunday joylardan biri Namangan viloyatining Chortoq tumanida joylashgan. Afsonaga ko'ra, u bu yerlarga islomni targ'ibot qilish uchun kelgan. Bundan tashqari Qaroniyning

onasi ham shu yerda dafn etilgan deyishadi. U o'layotgan vaqtda avliyo uni yuvish uchun ancha vaqt suv topa olmagan ekan, shunda Qaroniy allohdan suv so'rab murojaat qilib qo'li bilan quruq yerga uradi u urgan joyda muqaddas buloq paydo bo'ladi.

Ayrim manbalarda Baliqko'l majmuasi ham deb yuritiladi. Ushbu majmua 1853 yilda Usta Mullaxo'ja va Usta Tilla Hojimat rahbarligida mahalliy aholi tomonidan hashar yo'li bilan bunyod etilgan. Umumiy yer maydoni 4,03 gektar. Majmuada maqbara, masjid, qabriston va shifobaxsh buloqlar joylashgan.

Usta Mehmonxo'ja va Usta Hasan 1900 yilda majmua masjidiga qo'shimcha ravishda ayvon qurgan. Bezak ishlarida Qur'oni Karim oyatlaridan foydalanilgan. Shuningdek, yog'och o'ymakorligi san'ati namunalari qo'llanilgan. Yog'och ustunlar o'ziga xos mahobatga va chiroyga ega.

Masjid atrofida Sulton Said Uvays Qaroniy ismli avliyoning maqbarasi va o'rta asrlarga mansub Oqyortepa arxeologik yodgorligi mavjud. Rivoyatlar va xalq og'zaki ijodiga ko'ra, go'yo Sulton Voiz, ya'ni Sulton Said Uvays Qaroniyning onasi Bibirohat aya eri o'lgach, yakkayu yagona o'g'lini o'ylab, qayta turmushga chiqmaydi. O'g'li ham ko'zi ojiz onasining ahvoliga achinib, uni yolg'iz tashlab ketishga ko'ngli bo'lmay, bir umr uylanmay o'tadi. O'tinchilik qilib, birovlarining tuyasini boqib tirikchilik qilishadi. Shuningdek, maskanda baliqli ko'l bo'lib, u mo'jizaviy sirlarga ega. Ko'l yoki baliqli buloqlarning suvi o'ta tiniq, musaffo, shirin bo'lgan. Buloqdagi katta baliqlarning ayrimlari o'zgacha shaklda bo'lib, mo'jizaviy xususiyatga egaki, ular juma kuni ko'rinmay qoladi hamda buloqdagi suvda ham o'zgarish ro'y beradi.



Sulton Uvays qaroniy majmuasi umumiy ko`rinishi

Mustaqilligimizning so`nggi yillarida majmua arxitektor K.D.Raximov tomonidan ishlab chiqilib, to`la ta`mirlandi va qayta qurildi. Majmua hududi va unga tutash qism obodonlashtirildi, kutubxona va hattoki mehmonxona qurildi. Bugungi kunda majmuada ziyorat marosimlarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Asosiy kirish ramziy darvoza bilan bezatilgan. Markaziy qismida suv ombori joylashgan, masjid va maqbaraning qad rostlagan binolari shu qadar mohirlik bilan bezatilganki, ular qushlar uchadigan balandlikdan qaraganda o`yinchoqlarga o`xshab ko`rinadi. 2021 yil 20 fevral kuni majmuaning ta`mirdan keyin ochilish marosimi bo`lib o`tdi. Majmuada katta masjid (1400 o`ringa mo`ljallangan) va tahoratchona, maqbara yonida ziyoratchilar uchun ayvon, mehmonxona, muzey va kutubxona, hududda uchta favvora, dam olish ayvonlari va xizmat ko`rsatish shahobchalari bunyod etilgan. Bu albatta, hududda turizm infrastrukturasi yaxshilashga va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ziyorat turizmi - bu nafaqat diniy va ma`naviy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy merosni saqlash, jamiyatlararo muloqotni mustahkamlash hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim omildir. Maqolada ta`kidlanganidek, tarixiy va muqaddas ziyorat majmualarini me`moriy va landshaftli jihatdan shakllantirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarning qo`llanilishi ustuvor vazifa hisoblanadi. Farg`ona vodiysidagi ziyorat turizmi ob`yektlari misolida, milliy madaniyat va innovasion texnologiyalarni uyg`unlashtirish orqali milliy va mintaqaviy darajada turizmni yanada rivojlantirish, shuningdek, tarixiy- madaniy merosni saqlash va jamiyatning ma`naviy boyishini ta`minlash mumkin. Bu esa O`zbekistonning turizm sohasidagi kelajak salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Batafsil: <https://lex.uz/ru/docs/-4143188>
2. Khashimov, Sherakhon Jurakhanovich (2 0 2 0) " P I L G R I M A G E T O U R I S M I N U Z B E K I S T A N : P R O B L E M S A N D S O L U T I O N S , " Electronic Research journal of Social Sciences and Humanities: V.2: Iss.1,P.8
3. Mirodil Mirvaxidovich Haydarov, Abduqodirov Jasurbek Jonyigit o'g'li "O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi: Hamkorlik va istiqbolli rejalar" Ислом тафаккару илмий-маърифий, диний-маданий, ахборот нашри 02.03.2021 йил
4. Raximov K.Dj. Istoriya razvitiya landshaftnoy arxitektury Uzbekistana i sovremennyye tradisii. – Samarkand: SAMGASU, 2020.
5. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. "Наманган", 2013 й. 113-б.

QUYI AMUDARYO VA BUYUK IPAK YO'LI BO'YIDAGI NOYOB TARIXIY OBIDALAR VA ULARNING KELAJAKDA TURIZM RIVOJIGA TA'SIRI

Shnekeev Jumabay Kalimbetovich

Qoraqalpoq davlat universiteti arxitektura fanlari doktori(DSc), dotsent

Kosbergenova Nargiza Maxset qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqola Qoraqalpog'iston hududida joylashgan noyob tarixiy obidalarga bag'ishlangan bo'lib, ularning karvon yo'llari bilan bog'liqligi va turizmdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Tuproq qal'a, Ayaz qal'a, Jampiq qal'a, Mizdakxon, Chilpiq kabi eng muhim arxeologik obiectlar ko'rib chiqiladi. Bu yodgorliklar hududning Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq tarixiy va madaniy merosini aks ettirib, mahalliy turizmni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada